

“TASDIQLAYMAN”

**“InFinBank” AJ
Boshqaruv raisi**

B.S. Djurayev



FIG

Imzo

Sana

**“InFinBank” AJ Boshqaruvi
yig‘ilishining 30 . 01 2026 -yildagi
24 -sonli bayonnomasi**

**Ro‘yxat raqami: T-02
30 . 01 .2026 -yil**

**“InFinBank” AJ tomonidan moliyalashtirilgan
kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar
bo‘yicha shartnoma shartlarini qayta ko‘rib
chiqish tartibi**

Mazkur hujjat “InFinBank” AJning mulki hisoblanadi. Ushbu hujjatning mazmuni Bank bilan oldindan kelishilmagan holda to‘liq yoki qisman qayta chop etilishi yoki bank xodimlari bo‘lmagan uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas. Har qanday o‘zgartirishlar asl nusxaga va faqat ushbu hujjatning nazorat qilinadigan nusxalariga kiritiladi.

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13 tadan 2-bet

MUNDARIJA:

1. MAQSAD.....	3
2. QO‘LLANILISH SOHASI.....	3
3. HAVOLALAR.....	3
4. ATAMALAR VA TA‘RIFLAR.....	3
5. ARIZA QABUL QILISH VA RO‘YXATGA OLISH TARTIBI.....	5
6. KREDITLAR VA UNGA TENGLASHTIRILGAN OPERATSIYALAR BO‘YICHA SHARTNOMA SHARTLARINI QAYTA KO‘RIB CHIQISH TO‘G‘RISIDA QAROR QABUL QILUVCHI ORGANLAR.....	5
7. YURIDIK SHAXSLAR BO‘YICHA AKTIVLAR SHARTLARINI QAYTA KO‘RIB CHIQISH (QAYTATUZISH).....	5
8. JISMONIY SHAXSLAR BO‘YICHA AKTIVLAR SHARTLARINI QAYTA KO‘RIB CHIQISH (QAYTA TUZISH).....	7
9. MOLIVAVIY QIYINCHILIKLAR, MURAKKAB HAYOTIY VAZIYATLARGA TUSHIB QOLGAN HAMDA FORS-MAJOR HOLATLARI TUFAYLI O‘Z VAQTIDA KREDIT TO‘LOVLARINI AMALGA OSHIRISHGA QIYNALAYOTGAN MIJOZLARNING KREDIT SHARTNOMASI SHARTLARIGA O‘ZGARTIRISH VA QO‘SHIMCHALAR KIRITISH.....	8
10. MUAMMOLI AKTIVLAR BILAN ISHLASH DEPARTAMENTIDAGI ISHLAR.....	10
11. JAVOBGARLIK.....	11
12. SAQLASH.....	11
13. ILOVALAR.....	11
14. XULOSA.....	11

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13 ta dan 3-bet

1. MAQSAD

1.1. Ushbu Tartib “InFinBank” AJ (keyingi o'rinlarda – Bank) tizimida moliyalashtirilgan kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish tartibini belgilaydi.

2. QO'LLANILISH SOHASI

2.1. Ushbu Tartib talablari “InFinBank” AJ tizimida moliyalashtirilgan kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish jarayonlarida ishtirok etadigan “InFinBank” AJning barcha bo'linmalariga (Bosh ofis, Amaliyot boshqarmasi, filiallar, bank xizmatlari markazlari) va mansabdor shaxslariga taalluqlidir.

3. HAVOLALAR

3.1. Ushbu Tartib quyidagi hujjatlar asosida ishlab chiqilgan:

- O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi;
- O'zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to'g'risidagi” Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining “Garov to'g'risida”gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining “Baholash faoliyati to'g'risida”gi Qonuni;
- O'zbekiston Respublikasining “Ipoteka to'g'risida”gi Qonuni;
- “Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risida”gi Nizom (O'z.Res. Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan ro'yxatga olingan);
- “Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida”gi Nizom (O'z.Res. Adliya vazirligi tomonidan 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan);
- Amaldagi boshqa qonun hujjatlari va “InFinBank” AJning ichki me'yoriy hujjatlari.

4. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Iste'molchilar - bank xizmatidan foydalanish istagida bankka murojaat qilgan, ushbu xizmatdan foydalanayotgan yoki oldin foydalangan jismoniy yoki yuridik shaxslar.

Murojaat - iste'molchi (yoki uning vakili) tomonidan og'zaki, yozma yoki elektron shaklda bankka yuborilgan bank xizmatlarini ko'rsatishga taalluqli ariza, shikoyat yoki taklif.

Kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar - banklar tomonidan yuridik hamda jismoniy shaxslarga beriladigan kredit, mikroqarz, mikrokredit, Bank kafolati, faktoring va boshqa turdagi kreditlar.

Bank filiali – “InFinBank” AJning Amaliyot boshqarmasi va hududiy filiallari.

Aktivlar - Kredit, mikrokredit, overdraft, lizing, faktoring, qimmatli qog'ozlar, investitsiyalar, boshqa banklardagi mablag'lar, olinishi kerak bo'lgan, hisoblab yozilgan va (yoki) undirib olinmagan foizli/foizsiz daromadlar, bankning boshqa o'z mulklari, bo'lib-bo'lib to'lash shaklida realizatsiya qilingan mulk, balansdan tashqari moddalar (qaytarib olinmaydigan kredit majburiyatlari, foydalanilmagan kredit liniyalari, akkreditivlar, kafolatlar), shuningdek kredit tavakkalchiligi bo'lgan boshqa aktivlar va balansdan tashqari moddalar;

Korporativ kreditlash sohasidagi aktivlar - Tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va rivojlantirish maqsadlarida korporativ biznes doirasida Qarz oluvchilarga – yuridik shaxslarga, shuningdek yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi xo'jalik yuritish subyektlariga (YATTga) taqdim qilingan moliyalash;

Chakana kreditlash sohasidagi aktivlar- Chakana biznes sohasida Qarz oluvchilarga – jismoniy shaxslarga taqdim qilingan moliyalash (ipoteka kreditlari, avtokreditlar, iste'mol kreditlari, ta'lim kreditlari, mikroqarzlilar, mikrokreditlar, overdraft kreditlari, onlayn kreditlar va b.)

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13 tadan 4-bet

Muammoli aktivlar- Mijoz shartnomada yoki qonun hujjatlarida nazarda tutilgan muddatlarda va shartlarda Bank oldidagi majburiyatlarini bajarmagan (tegishli baxajarmagan), sifati “qoniqarsiz”, “shubhali” va “umidsiz” kabi tasniflanishi mumkin bo'lgan aktivlar;

Garov narsasi - ashyolar, qimmatli qog'ozlar, pul mablag'lari, shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish, yakka tartibda uy-joy qurish uchun kim oshdi savdosi asosida olingan yer uchastkasiga meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik huquqi, shuningdek savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari, turar joy binolari ular joylashgan yer uchastkalari bilan birgalikda, boshqa mol-mulk va mulkiy huquqlar.

Kredit monitoringi - Kredit portfelining sifati ustidan majmuaviy nazorat, Bankning qabul qilingan standartlari va Kredit siyosatidan og'ishlarning o'z vaqtida aniqlanishi.

Mijozlar tomonidan Bank oldidagi o'z majburiyatlarining o'z vaqtida va to'liq bajarilishini ta'minlash maqsadida aktivlar, ular bo'yicha hisoblab yozilgan foizlar va boshqa moliyaviy majburiyatlar ustidan nazorat, moliyalashtirilgan loyihalar bo'yicha Biznes-reja ko'rsatkichlari (texnik-iqtisodiy asoslar) bajarilishi ustidan nazorat, shartnomalar bo'yicha garovga qabul qilingan mulkning (kafillik, sug'urta polisi, depozit va b.) tegishli bax saqlanishi va yetarli ekanligi ustidan nazorat.

Moliyaviy qiyinchiliklar - shaxs, oila, korxona yoki davlatning daromadlari xarajatlarni qoplamay qolgani yoki qarz majburiyatlarini o'z vaqtida bajara olmasligi natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy holat;

Murakkab hayotiy vaziyatlar - odatiy hayot tarzi buzilib, mustaqil ravishda qiyinchilikni yengib o'ta olmaydigan, jismoniy, ruhiy, ijtimoiy yoki moddiy jihatdan og'ir holatga tushib qolishiga sabab bo'ladigan holatlar;

Baholash mezonlari - natija, faoliyat yoki holatni aniq va xolis baholash uchun qo'llanadigan ko'rsatkichlar va talablar majmuasidir;

Kredit shartnomasi — bu bank (kreditor) tomonidan qarz oluvchiga qaytarishlik, foizlilik va muddatlilik shartlari bilan pul mablag'larini berishni nazarda tutuvchi yozma kelishuvdir. Ushbu hujjat kredit miqdori, foiz stavkasi, qaytarish tartibi va tomonlarning huquq-majburiyatlarini belgilab beradi;

Shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar - shartnoma va (yoki) unga qo'shimcha kelishuvga muvofiq asosiy shartlari o'zgartirilgan aktivlar;

Moliyaviy sog'lomlashtirish turlari — qarz oluvchining to'lovga qobiliyatini tiklash, mijozni qo'llab-quvvatlash hamda kredit tavakkalchiligini minimallashtirish maqsadida kredit majburiyatining dastlabki shartlarini (miqdori, muddati, foiz stavkasi, to'lovlar jadvali, ta'minoti va boshqa shartlar) tuzatishning shakl va usullaridir. Ular Bankning ichki tartib-taomillari hamda vakolatli organlari qarorlariga muvofiq qo'llaniladi.

Prolongatsiya - bu shartnoma, kelishuv yoki bitimning amal qilish muddatini uning tugash vaqtidan keyin uzaytirish jarayonidir; bu eski shartnomani bekor qilmasdan, uni yangi muddatga davom ettirishga imkon beradi;

Restrukturizatsiya - bu qarz oluvchining moliyaviy holati yomonlashganida, bank tomonidan kredit shartlarini o'zgartirish, to'lovlarni yengillashtirish (masalan, muddatni uzaytirish, ta'til berish, foizlarni kamaytirish) jarayoni, bunda kredit shartnomasi o'z kuchida qoladi. Uning asosiy maqsadi — qarz oluvchiga dolzarb vaziyatda qarzni to'lashga yordam berish va to'lovlarni amalga oshirish imkonini yaratish;

Kredit bo'yicha monitoringni yurituvchi tuzilma - kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish masalalari yuzasidan loyihaning (kreditning) joriy holati haqida xulosa beruvchi tarkibiy tuzilma;

Bankning qaror qabul qiluvchi vakolatli organlari — Amaliyot boshqarmasi Kichik kredit qo'mitasi/Filial Kredit komissiyasi, Bank Kredit qo'mitasi, Bank Boshqaruvi, Bank Kuzatuv kengashi, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi.

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13-hudud 5-bet

5. ARIZA QABUL QILISH VA RO'YXATGA OLISH TARTIBI

5.1. Qarz oluvchi mavjud shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan ushbu Tartibning 1-ilovasida nazarda tutilgan hujjatlarni ilova qilgan holda Bankka yozma ariza bilan murojaat qiladi.

Ariza Bank tomonidan 1 bank ish kuni ichida ro'yxatga olinadi.

5.2. Ariza va unga oid hujjatlar to'liq taqdim qilingandan so'ng 15 kun ichida ko'rib chiqiladi.

Murojaat bankning vakolatli kollegial organi tomonidan o'rganib chiqilib ijobiy yoki rad etish bo'yicha (asoslantirilgan holda) qaror qabul qilingandan so'ng 3 bank ish kuni ichida murojaatchiga yozma ravishda ma'lum qilinadi.

Murojaatni qo'shimcha o'rganish, shu jumladan hujjatlarni so'rab olish talab etilganda, murojaat bir oygacha bo'lgan muddatda ko'rib chiqilishi mumkin. Bu haqda arizachiga yozma ravishda xabar beriladi.

6. KREDITLAR VA UNGA TENGLASHTIRILGAN OPERATSIYALAR BO'YICHA SHARTNOMA SHARTLARINI QAYTA KO'RIB CHIQISH TO'G'RSIDA QAROR QABUL QILUVCHI ORGANLAR

6.1. Filialga o'rnatilgan vakolat doirasiga kiruvchi loyihalar yuzasidan kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish filial Kredit komissiyasi/Amaliyot boshqarmasi Kichik kredit qo'mitasining ijobiy qarori mavjud bo'lganda, loyiha bo'yicha monitoringni yurituvchi tuzilmaning xulosasi asosida ushbu yo'nalishga mas'ul bo'lgan Boshqaruv raisi o'rinbosarining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

6.2. Filial Kredit komissiyasi/Amaliyot boshqarmasi Kichik kredit qo'mitasi tomonidan Bank Kredit qo'mitasi qarori asosida ajratilgan kreditlar va bevosita Bosh ofis loyihalari yuzasidan kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi qaror ushbu kredit monitoringini yurituvchi bo'linma yoki tashabbuskor kreditlovchi tarkibiy bo'linmaning xulosasi asosida Bank Kredit qo'mitasi (Bank Boshqaruvi, Bank Kuzatuv kengashi) tomonidan qabul qilinadi.

6.3. Chakana kreditlar yuzasidan kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish filial Kredit komissiyasi/Amaliyot boshqarmasi kichik kredit qo'mitasining ijobiy qarori mavjud bo'lganda, ushbu kredit monitoringini yurituvchi bo'linma xulosasi asosida mazkur yo'nalishga mas'ul Boshqaruv raisi o'rinbosarining ruxsati bilan amalga oshiriladi.

6.4. Agar loyihani moliyalashtirish to'g'risidagi qaror bankning Kredit qo'mitasi yoki Bank Boshqaruvi yoxud Bank Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilingan bo'lsa, ushbu loyihaning kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish masalasi yuzasidan yakuniy qaror ana shu o'zgartirishlar kiritilayotgan paytda vakolatli bo'lgan organ tomonidan qabul qilinadi.

6.5. Agar Bank Kuzatuv kengashi tomonidan kredit ajratilishi ma'qullanganidan keyin, kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risida murojaat qilingan va dastlab Bank Kuzatuv kengashiga kiritilishiga sabab bo'lgan holatlar o'zgargan taqdirda (masalan, Bank Kuzatuv kengashi tomonidan ko'rib chiqilishi lozim bo'lgan limit nominal summasi o'zgarganda yoki mijoz Bankka aloqador shaxs bo'lmay qolganda), kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi qaror ana shu o'zgartirishlar kiritilayotgan paytda vakolatli bo'lgan organ tomonidan qabul qilinadi.

7. YURIDIK SHAXSLAR BO'YICHA AKTIVLAR SHARTLARINI QAYTA KO'RIB CHIQISH (QAYTA TUZISH)

7.1. Aktivni qayta tuzish jarayoni bo'yicha vakolatlar Bankning amaldagi Kredit siyosatiga muvofiq belgilanadi.

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13 tadan 6-bet

Aktivni qayta tuzish to'g'risida taklif loyihani bevosita nazorat qiluvchi tarkibiy bo'linma tomonidan berilishi kerak.

7.2. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartnoma shartlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha Qarzdor tomonidan ushbu tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim qilinadi.

7.3. Korparativ kredit portfeli monitoringi bek-ofisi 3 bank ish kuni mobaynida mijoz tomonidan taqdim qilingan hujjatlarni ko'rib chiqadi, bevosita loyihani amalga oshirish joyiga chiqadi va xulosa tayyorlaydi. Korparativ kredit portfeli monitoringi bek-ofisi xulosasi quyidagi axborotni o'z ichiga olishi kerak:

a) ajratilgan aktiv to'g'risida batafsil ma'lumot (maqsad, taqdim qilish uchun asos (qaror va farmoyishlar, davlat dasturlari, vakolatli organ qarorlari, kredit shartnomasi va h.k.), summasi, foizlari, muddati va h.k.);

b) garov to'g'risida axborot (mulk egasi, joylashgan manzili, garov qiymati, sug'urta va uning amal qilish muddati);

c) bank tarifiga muvofiq aktivni qayta tuzish uchun komissiya miqdorini belgilash;

d) garovga qo'yilgan mulk o'zgartirilgan yoki qisman olib qo'yilgan holatda, tegishli hujjatlar (vakolatli organ qarori) va garov hujjatlarining tegishli o'zgarishlari;

e) qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlarining bajarilishi;

f) loyihaning joriy holati to'g'risida batafsil axborot (joriy ishlab chiqarish quvvati, uskuna holati va h.k.);

g) dastlabki biznes-reja (ishlab chiqarish va realizatsiya qilish haqiqiy hajmi), pul oqimlari, loyihani ishga tushirish muddatlari tahlili;

h) loyiha bajarilmagan holatda, uning sabablari va faktorlari;

i) loyihaning yangi biznes-rejasi tahlili (taklif qilingan to'lovlar jadvali asosida);

j) aktivni qayta tuzish sabablari;

k) bank va byudjet hamda boshqa tashkilotlar oldidagi qarzdorlik to'g'risida ma'lumotlar;

l) so'nggi hisobot davri uchun buxgalteriya va moliyaviy natijalar tahlili;

m) amaldagi shartnomalar to'g'risida axborot (xom ashyoni xarid qilish va tayyor mahsulotni sotishga doir);

n) boshqa aloqador bo'lgan ma'lumotlar.

7.4. Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha shartnoma shartlari quyidagi holatlarda qayta ko'rib chiqilishi mumkin:

Ishga tushgan loyihalar bo'yicha:

- kredit mablag'lari maqsadli ishlatilgan;

- pul aylanmalari Bank orqali amalga oshirilgan bo'lib, pul tushumlari (asosiy faoliyat bilan bog'liq xarajatlar amalga oshirilganidan keyin) kredit to'lovlarini qoplashga yetarli bo'lmasa;

- Qarz oluvchiga bog'liq bo'lmagan holatlar sababli korxona faoliyatining vaqtincha to'xtatilishi, obyektiv holatlarga ko'ra korxonaning to'liq quvvat bilan faoliyat ko'rsata olmasligi, korxonaning budjet va boshqa shaxslarda mavjud bo'lgan debitor qarzdorliklarini undirish imkonini yo'qligi yoki qisman undirilishi natijasida kredit to'lovlarini to'liq qoplash imkonsiz bo'lgan;

- ayni kredit bo'yicha oxirgi 12 oy mobaynida kredit to'lov grafiklariga o'zgartirish kiritilmagan;

- kredit bo'yicha to'lov grafiklariga avval ikki va undan ko'p marotaba o'zgartirish kiritilmagan;

- mavsumiy pul tushumiga ega bo'lgan qarzdorlar bo'yicha kredit qaytarish grafigi amaldagi mavsumiy tushumlarga mos kelmagan;

- ayni kredit bo'yicha avval sud tartibida kelishuv bitimi tuzilmagan;

- tahlil qilingan hisob-kitoblar natijasiga ko'ra loyihaning istiqboli mavjud bo'lgan.

Ishga tushmagan (investitsion davrdagi) loyihalar bo'yicha:

- kredit mablag'larining maqsadsiz ishlatilganlik holati aniqlanmagan;

- Qarz oluvchiga bog'liq bo'lmagan obyektiv holatlar sababli loyiha ishga tushmagan.

7.5. Kredit shartnomasining muddati uzaytirilgan taqdirda, shartnoma bilan bog'liq barcha zarur hujjatlar (garov shartnomasi, kafillik shartnomasi, sug'urta shartnomasi (polisi) va h.k.)ning

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2022-yil

13 ta dan 7-bet

muddati ham kredit shartnomasining uzaytirilgan muddatiga mos ravishda ularga qo'shimcha kelishuv rasmiylashtirgan holda uzaytirilishi lozim.

7.6. Hujjatlar to'plami Korparativ kredit portfeli monitoringi bek-ofisi tomonidan o'rganib chiqilib xulosa tayyorlangan holda, filial Kredit komissiyasiga ko'rib chiqish uchun taqdim qilinadi. Ushbu komissiya tomonidan 1 bank ish kuni mobaynida qaror qabul qilinadi. Filial Kredit komissiyasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan holatda, hujjatlarning to'liq paketi Muammoli aktivlar bilan ishlash departamentiga ko'rib chiqish uchun yuboriladi (hujjatlar elektron shaklda taqdim qilinishi mumkin).

7.7. Korparativ kredit portfeli monitoringi bek-ofisi bo'limining mas'ul xodimi restrukturizatsiya /prolongatsiya to'g'risidagi qabul qilingan qaror hamda Bosh bankning ijobiy javob xatini olgan kundan boshlab, uch (3) bank ish kuni ichida og'zaki yoki yozma tarzda mijozni xabardor qiladi, bitim sanasini belgilaydi va quyidagi hujjatlarni tayyorlaydi:

- a) amaldagi kredit shartnomaga qo'shimcha kelishuv;
- b) kafillik shartnomaga qo'shimcha kelishuv;
- c) garov shartnomasiga qo'shimcha kelishuv;
- d) to'lovlar jadvaliga o'zgartirish kiritish;
- e) sug'urta tashkiloti bilan qo'shimcha kelishuvlar tuzish; (bunda sug'urta mukofoti to'lovi to'langanligi)

f) zarur holatlarda garov mulkining kelishish narxi tomonlar roziligiga asosan kamaytiriladi hamda shartnoma shartlariga qo'shimcha kiritiladi.

Kredit ta'minoti sifatida yuridik shaxsning kafilligi rasmiylashtirilgan bo'lib, o'rganish vaqtida kafilning to'lov qobiliyati past bo'lsa, mazkur kafillik summasidan kam bo'lmagan miqdorda boshqa likvidli ta'minot turi taqdim qilinishi lozim.

8. JISMONIY SHAXSLAR BO'YICHA AKTIVLAR SHARTLARINI QAYTA KO'RIB CHIQISH (QAYTA TUZISH)

8.1. Aktiv shartlarini qayta tuzish jarayoni bo'yicha vakolatlar Bankning amaldagi Kredit siyosatiga muvofiq belgilanadi.

Aktiv shartlarini qayta tuzish to'g'risida taklif loyihani bevosita nazorat qiluvchi tarkibiy bo'linma tomonidan berilishi kerak.

8.2. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning (resturukturizatsiya/prolongatsiya) turlari quyidagilar:

- qarzdorlikni boshqa jismoniy shaxsga rasmiylashtirish (yon berish);
- kredit shartnomasi amal qilish muddatini uzaytirish;
- kredit to'lovlar jadvalini o'zgartirish;
- kredit foiz stavkalari hamda jarima va penyalarni qayta ko'rib chiqish;
- garov mulkini boshqa likvidli garovga almashtirish.

8.3. Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartnoma shartlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha Qarzdor tomonidan ushbu tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar taqdim qilinadi.

8.4. Mijozning arizasiga asosan, Chakana bek ofisi tomonidan xulosa tayyorlanib, filial Kredit komissiyasi muhokamasiga kiritiladi. Filial Kredit komissiyasi tomonidan ijobiy qaror qabul qilingan taqdirda, yakuniy qaror qabul qilish uchun Bosh bankka xat bilan murojaat qilinadi. (elektron shaklda filial Kredit Komissiyasi qarori, xulosa hamda ushbu tartibning 1-ilovasida ko'rsatilgan hujjatlar ilova qilinadi).

Yon berish shartnomasi tuzilishi ko'zda tutilgan loyihalar bo'yicha yuqoridagi hujjatlarga yangi qarzdor/birgalikda qarz oluvchining KATM (Kredit axborot tahlil markazi) ma'lumotlari ham ilova qilinishi lozim.

8.5. Chakana kredit portfeli monitoringi bek-ofisi xulosasi quyidagi axborotni o'z ichiga olishi kerak:

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13-tadan 8-bet

- a) ajratilgan aktiv to'g'risida batafsil ma'lumot (maqsad, taqdim qilish uchun asos (qaror va farmoyishlar, davlat dasturlari, vakolatli organ qarorlari, kredit shartnomasi va h.k.), kredit miqdori, foizlari, muddati va h.k.);
- b) garov to'g'risida axborot (mulk egasi, joylashgan manzili, garov qiymati, sug'urta va uning amal qilish muddati);
- c) bank tarifiga muvofiq aktivni qayta tuzish uchun komissiya miqdorini belgilash;
- d) garovga qo'yilgan mulk o'zgartirilgan yoki qisman olib qo'yilgan holatda, tegishli hujjatlar (vakolatli organ qarori) va garov hujjatlarining tegishli o'zgarishlari;
- e) qarz oluvchi tomonidan shartnoma shartlarining bajarilishi;
- f) Qarzdor/yangi qarzdorning holati to'g'risida batafsil axborot (joriy daromadi va kredit yuki);
- g) aktivni qayta tuzish sabablari;
- h) boshqa aloqador bo'lgan ma'lumotlar.

9. MOLIVAVIY QIYINCHILIKLAR, MURAKKAB HAYOTIY VAZIYATLARGA TUSHIB QOLGAN HAMDA FORS-MAJOR HOLATLARI TUFAYLI O'Z VAQTIDA KREDIT TO'LOVLARINI AMALGA OSHIRISHGA QIYNALAYOTGAN MIJOZLARNING KREDIT SHARTNOMASI SHARTLARIGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

9.1. Qarz oluvchi (birgalikda qarz oluvchi) filialga moliyaviy sog'lomlashtirish bo'yicha murojaat qilganda, kredit ajratilganidan so'ng, 2-ilovada nazarda tutilgan holat yuzaga kelgan bo'lsa, Chakana kredit portfeli monitoringi bo'limi bek-ofisi xodimi Bank tizimida restrukturizatsiya bo'yicha arizani (3-ilovaga muvofiq) mijozga taqdim etadi, mijoz tomonidan ariza to'ldirilib, imzolangandan so'ng, zarur hujjatlar bilan birga uni qabul qiladi.

Mijoz arizasiga ilova qilinadigan zarur hujjatlar:

- moliyaviy holat yomonlashganini tasdiqlovchi hujjatlar;
- shaxsni tasdiqlovchi hujjat (yoki uning o'rmini bosuvchi hujjatlar).

9.2. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishning (restrukturizatsiya/prolongatsiya) turlari quyidagilar:

- kredit to'lov jadvali muddatini uzaytirish;
- kredit ta'tilini berish;
- kredit to'lovlar jadvalini o'zgartirish;
- kredit foiz stavkalari hamda jarima va penyalarni qayta ko'rib chiqish.

9.3. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish 4-ilovaga muvofiq amalga oshiriladi.

Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga (restrukturizatsiyaga) asos bo'ladigan moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlar hamda fors-major holatlar ro'yxati:

- a) qarz oluvchining ikki oydan ortiq davr mobaynida vaqtincha mehnatga layoqatsiz bo'lib qolishi (shifoxona ma'lumotnomasi, onkodispenser xulosasi va vaqtincha mehnatga layoqatsizligini tasdiqlovchi boshqa tibbiy hujjatlar);
- b) qarz oluvchining mehnat shartnomasi bekor qilinishi va ish qidirayotgan shaxs sifatida tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida ro'yxatga olinishi;
- c) qarz oluvchining birgalikda qarz oluvchisi va (yoki) kafili bo'lgan turmush o'rtog'i vafot etishi;
- d) I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar qarz oluvchining qaramog'iga olinishi yoki uning qaramog'idagi I yoki II guruh nogironligi bo'lgan shaxslar sonining ortishi;
- e) qarz oluvchiga nisbatan nogironlikning I yoki II guruhi belgilanishi (kredit rasmiylashtirilguniga qadar nogironligi bo'lgan shaxslar bundan mustasno);
- f) tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi;
- g) qarz oluvchining homiladorlik va tug'ish ta'tiliga chiqishi.

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13 tadan 9-net

Qarz oluvchining murojaatiga ko'ra bank tomonidan kredit shartnomasi muddati mobaynida to'lovlar muddati birinchi marotaba yuqoridagi holatlar natijasida kechiktirilganda yoki uzaytirilganda kredit tasnifi o'zgartirilmaydi va shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar deb tasniflanmaydi hamda kredit shartnomasi shartlarini qayta ko'rib chiqish uchun bank xizmati (komissiya) undirilmaydi.

9.4. Restrukturizatsiya turini aniqlash metodikasi quyidagi mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi:

a) Kredit shartnoma muddatini uzaytirish (prolongatsiya) - to'lovlar jadvali mijozning tanlovi asosida hamda Bankning ichki qoidalariga muvofiq moslashtiriladi, zarur hollarda kredit muddati ma'lum davrga uzaytiriladi va quyidagi shartlarning barchasi bir vaqtda bajarilganda qo'llaniladi:

- mavjud muammolar qisqa muddatli emas, balki uzoq davom etishi yoki qachon bartaraf etilishi aniq bo'lmagan holatlarda;
- to'lovga qobiliyatning o'rta yoki uzoq muddatda tiklanishi aniqlanadi;
- mijoz majburiyatlarni hozirgi hajmda bajarish imkoni yo'qligini tasdiqlaydi;
- kredit muddati uzaytirilishi ruxsat etilgan qarz yuki ko'rsatkichidan oshmaydi va mazkur kredit bo'yicha ijobiy kredit tarixi mavjud bo'lganda.

b) Kredit ta'tili (kredit muddati o'zgartirilmasdan) — kredit bo'yicha to'lovlar vaqtincha to'xtatiladi va mijozning xohishiga ko'ra taqsimlanadi, agar quyidagi shartlarga to'g'ri kelsa:

- holatlar vaqtinchalik bo'lsa;
- daromad tiklanish muddati prognoz qilinadigan va tasdiqlangan bo'lsa;
- mijoz avval majburiyatlarini lozim darajada bajargan bo'lsa;
- muddat oxiridagi to'lovlar oshishi sezilarli kredit tavakkalchiligi (riski)ni keltirib chiqarmasa.

Kredit ta'tili faqat bir marta beriladi va bitta shartnoma bo'yicha amal qiladi. Kredit ta'tili uzaytirilmaydi. Ularning amal qilish muddatini bo'lish ham mumkin emas (masalan, 3 oydan 2 marta ta'til olish).

d) To'lovlar jadvalini o'zgartirish — kechiktirilgan to'lovlar qolgan barcha to'lovlarga teng taqsimlanadi, agar:

- mijoz joriy daromadni saqlab qolgan bo'lsa;
- to'lovga qobiliyat pasaygan, biroq oshirilgan oylik to'lovni qoplash uchun yetarli bo'lsa;
- kredit muddatini uzaytirish zarurati bo'lmasa;

e) Kredit foiz stavkalari hamda jarima va penyalarni qayta ko'rib chiqish - qarzdorning oylik daromadi pasaygan yoki ishini yo'qotgan taqdirda, qarzdor yoki uning turmush o'rtog'i vafot etgan hollarda, qarzdor nogiron bo'lib qolgan yoki og'ir kasallik holatida hamda qarzdor bola parvarishi ta'tilida bo'lsa.

Chakana kredit portfeli monitoringi bo'limi bek-ofisi mas'ul xodimi qarz oluvchining arizasi qanoatlantirilganligi/rad etilganligi haqida SMS-xabar yuborish yoki murojaatda ko'rsatilgan telefon raqamiga qo'ng'iroq qilish orqali Qarz oluvchini xabardor qiladi.

9.5. Chakana kredit portfeli monitoringi bo'limi bek-ofisining mas'ul xodimi restrukturizatsiya/prolongatsiya to'g'risidagi qabul qilingan qaror yoki Bosh bankning ijobiy javob xatini olgan kundan boshlab, uch (3) bank ish kuni ichida og'zaki yoki yozma tarzda mijozni xabardor qiladi, bitim sanasini belgilaydi va quyidagi hujjatlarni tayyorlaydi:

- amaldagi kredit shartnomaga qo'shimcha kelishuv;
- kafillik shartnomaga qo'shimcha kelishuv;
- garov shartnomasiga qo'shimcha kelishuv;
- to'lovlar jadvaliga o'zgartirish kiritish;
- sug'urta tashkiloti bilan qo'shimcha kelishuvlar tuzish;
- zarur holatlarda garov mulkning kelishish narxi tomonlar roziligiga asosan kamaytiriladi hamda shartnoma shartlariga qo'shimcha kiritiladi.

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2022-yil

13 ta dan 10-bet

10. MUAMMOLI AKTIVLAR BILAN ISHLASH DEPARTAMENTIDAGI ISHLAR

10.1. Filiallar Kredit komissiyalari tomonidan yuborilgan hujjatlar to'plamini 3-5 bank ish kunida o'rganib chiqib, ko'rilayotgan masala yuzasidan xulosa tayyorlaydi, (jismoniy shaxslar bo'yicha loyihalar bundan mustasno)

10.2. Jismoniy shaxslar bo'yicha barcha loyihalar (bankka aloqador shaxslar, Chakana kredit Qo'mitasi tomonidan ajratilgan kreditlar bundan mustasno) jumladan, moliyaviy qiyinchiliklar, murakkab hayotiy vaziyatlarga tushib qolgan hamda fors-major holatlari tufayli o'z vaqtida kredit to'lovlarini amalga oshirishga qiynalayotgan mijozlarning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Bosh bankning tegishli ruxsat xati asosida amalga oshiriladi.

10.3. Muddati o'tgan foiz qarzdorliklari mavjud aktivlar shartlari qayta ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yilmaydi. (Bankning vakolatli kollegial organi qarorida muddati o'tgan foiz to'lovlarini kechiktirish sharti ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno)

10.4. Shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar sifatining tasniflanishi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2015-yil 14-iyulda 2696-son bilan ro'yxatdan o'tkazilgan "Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar o'rnini to'ldirish uchun rezervlarni tashkil qilish, shuningdek ulardan foydalanish tartibi to'g'risida"gi Nizomga asosan "standart", "substandart", "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifali mezonlarga muvofiq amalga oshiriladi.

10.5. Bankning vakolatli kollegial organi bayoni yoki ijobiy ruxsat xatida belgilangan shartlar to'liq bajarilmagan kreditlar bo'yicha kredit shartlariga o'zgartirish kiritishga yo'l qo'yilmaydi.

Istiqbolsiz loyihalar bo'yicha qarzdorliklarni Bankning Muammoli aktivlar bilan ishlash texnik tartibi asosida sud tartibida undirish choralari ko'riladi.

10.6. Kredit (restrukturizatsiya/prolongatsiya) hujjatlari imzolanishi qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining shaxsini tasdiqlovchi hujjat bilan solishtirish orqali amalga oshiriladi. Kredit majburiyatlarini restrukturizatsiya/prolongatsiya qilish to'g'risidagi qarorni ijro etishda barcha manfaatdor ishtirokchilar jalb etilishi lozim, jumladan:

Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha:

-birgalikda qarz oluvchi/kafil;

-garovga qo'yuvchi er/xotini;

-qarzdorning er/xotini;

-agar kredit Davlat kafolati yoki kompensatsiyasi ostida berilgan bo'lsa, vakolatli davlat organlarining roziligi olinishi majburiy hisoblanadi.

Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlar bo'yicha:

-qarzdor oluvchi/kafil (bunda ta'sischi qarorlari olinishi talab qilinadi);

-garovga qo'yuvchi er/xotini;

-qarzdorning er/xotini;

-agar kredit Davlat kafolati yoki kompensatsiyasi ostida berilgan bo'lsa, vakolatli davlat organlarining roziligi olinishi majburiy hisoblanadi.

10.7. Qabul qilingan qaror asosida qarzdorga oid ma'lumotlarga bank dasturida (tizimda) tegishli o'zgartirishlar kiritiladi. Ushbu o'zgartirishlar Bankning Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti bilan hamkorlikda 1 bank ish kuni ichida amalga oshiriladi. Bunda filial tomonidan Kredit Qo'mitasi qarori/Boshqaruv Raisining ijobiy ruxsat xatida belgilangan shartlar hamda mazkur Tartibning 7.6-bandi (yuridik shaxslar bo'yicha) yoki 8.4-bandi (jismoniy shaxslar bo'yicha)dagi shartlar bajarilganligi bildirilgan xat bilan murojaat qiladi. Shundan so'ng, ushbu o'zgarishlar Bosh ofis tomonidan tasdiqlanadi va kerakli rasmiy talabnomalar Davlat kredit axborot reestriga yuboriladi (aktivning qayta ko'rib chiqilgan aktivlar tegishli hisobvaraqlariga o'tkazilishi, qarzni so'ndirish, yangi jadvali tuzilishi va boshqa o'zgarishlar).

10.8. Kredit shartnomasi shartlarini o'zgartirish vaqtida kredit bo'yicha muddati o'tgan foiz hamda muddati o'tgan asosiy qarzga hisoblangan foiz qarzdorliklari to'liq so'ndirilgan bo'lishi lozim.

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13-tadun 11-het

(Bankning kollegial organi qarorida boshqa holatlar nazarda tutilgan bo'lsa, ushbu holatlar bundan mustasno).

10.9. Qarzdorning to'lov grafigiga so'nggi muddati o'zgarmagan holda, faqatgina to'lov sanasi o'zgaradigan hollarda, mijozning asoslantirilgan arizasi va filialning ushbu masala yuzasidan Bosh Bankka murojaati asosida Boshqaruv raisining tegishli ruxsat xati orqali amalga oshiriladi. Bunda ushbu aktiv shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktiv hisoblanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Prezident Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasi bayonnomalarida berilgan topshiriqlar asosida to'lov grafiklariga o'zgartirish kiritilishi belgilangan kreditlar bo'yicha shartlar mazkur qarorlar hamda topshiriqlar doirasida ko'rib chiqiladi.

10.10. Bankning Aktivlar va passivlarni boshqarish qo'mitasi qaroriga asosan shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqqanlik uchun komissiya undirishi lozim.

Ushbu Tartibda nazarda tutilmagan alohida holatlar bo'yicha qaror:

- filial vakolati doirasida moliyalashtirilgan loyihalar bo'yicha Bank Kredit qo'mitasi/Chakana Kredit Qo'mitasi tomonidan;

- moliyalashtirish bo'yicha qaror Bank Kredit Qo'mitasi /Chakana Kredit Qo'mitasi tomonidan qabul qilingan loyihalar bo'yicha Bank Boshqaruvi tomonidan qabul qilinadi.

11. JAVOBGARLIK

11.1. Ushbu Tartib jarayonlarining barcha ishtirokchilari bankning ichki me'yoriy hujjatlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlariga muvofiq o'z funksiyalari va majburiyatlarini to'g'ri bajarish uchun javobgardirlar.

11.2. Filial/Amaliyot boshqarmasining tegishli xodimlari qarzdorlikni so'ndirish, shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar bo'yicha qo'shimcha kelishuvlar rasmiylashtirish ishlarini amaldagi qonunchilik hamda mazkur tartib talablari asosida amalga oshirilishiga mas'ul hisoblanadilar.

11.3. Loyihalarni ko'rib chiqish bo'yicha hujjatlar yig'majildining shakllantirilishi, shuningdek tegishli hujjatlarning elektron nusxalari tegishli platformaga biriktirib borilishiga filialda faoliyat yurituvchi filialning tegishli Bek-ofisi bo'limi mas'ul xodimi va ushbu bo'lim boshlig'i javobgar hisoblanadi.

11.4. Bank filiallarida ushbu Tartibda belgilangan ko'rsatmalar, muddatlar va miqdorlarga amal qilinishini nazorat qilish vazifasi shaxsan filial boshqaruvchisi/Amaliyot boshqarmasi boshlig'i zimmasiga yuklatiladi.

12. SAQLASH

12.1. Mazkur Tartibning asl nusxasi Bankning Yuridik departamentida saqlanadi. Hujjatning PDF formatidagi elektron nusxasi foydalanish uchun umumiy serverda saqlanadi. Tartibning DOCX formatidagi elektron nusxasi ushbu hujjatni ishlab chiquvchida va Bank Yuridik departamentida navbatdagi o'zgartirishlar va qo'shimchalarni kiritish uchun saqlanadi.

13. ILOVALAR

13.1. Mazkur Tartib 1, 2, 3 va 4-ilovalarni o'z ichiga oladi.

14. XULOSA

14.1. Mazkur Tartib bilan tartibga solinmagan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari va Bankning ichki qoidalari bilan hal etiladi.

14.2. Bank xodimlari tomonidan mazkur ichki qoida bilan tartibga solinadigan munosabatlarda yuzaga kelgan va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar aniqlanganda yoki sodir etilishiga shubha tug'dirgan har qanday holatlar haqida bankning Komplayens nazorat departamentini xabardor qilishi shart.

14.3. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik hujjatlari talablari o'zgargan holda,

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13-tadan 12-bet

zaruratga ko‘ra ushbu Tartibga o‘zgartirish kiritilgunga qadar qonunchilik normalaridan kelib chiqib ish yuritiladi.

14.4. Mazkur Tartibga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish bank Boshqaruvi qaroriga muvofiq belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

14.5. Ushbu Tartib Bank Boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan kunning ertasidan kuchga kiradi.

14.6. Tartib kuchga kirgan sanadan e‘tiboran, 2022-yil 10-avgustda tasdiqlangan 148-sonli “Aktivlar monitoringi texnik tartibi”ning 6.2-bo‘limi (Aktiv shartlarini qayta ko‘rib chiqish(qayta tuzish)) va 2022-yil 10-avgustda tasdiqlangan 147-sonli “Muammoli aktivlar bilan ishlash texnik tartibi”ning 6.8-bo‘limi (Muammoli aktivlar shartlarini qayta ko‘rib chiqish (restrukturizatsiya)) o‘z kuchini yo‘qotadi.

Tasdiqlangan:
30.01.2026-yil

Amal qilish muddati:
29.01.2027-yil

13 radan 13-bet

KELISHILGAN:

Salimov P.T.

_____ «__» ____ 20__ y.
F.I.O. imzo

Karimov R.A.

_____ «__» ____ 20__ y.
F.I.O. imzo

Frolova A.M.

_____ «__» ____ 20__ y.
F.I.O. imzo

Inoyatov SH.SH.

_____ «__» ____ 20__ y.
F.I.O. imzo

Murodov H.G‘.

_____ «__» ____ 20__ y.
F.I.O. imzo

ISHLAB CHIQLGAN:

**Muammoli aktivlar bilan
ishlash departamenti direktori**

Lavozim

Sayfutdinov Z.Z.

_____ F.I.O.
_____ Imzo
_____ Sana

Hujjatning amal qilish muddati:

30.01.2026 yildan 29.01.2027 yilgacha

«__» ____ 20__ yildan «__» ____ 20__ yilgacha
uzaytirilgan

____ / ____ -sonli nusxa

Tarqatish sanasi «__» ____ 2026-yil

(Hujjatni tarqatishda hujjatni boshqarish uchun
javobgar shaxsning asl imzosi)

**Jismoniy shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartnoma shartlariga o'zgartirish kiritish
bo'yicha Qarzdor tomonidan taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati**

1. Qarzdorning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi arizasi (asosli sabablar ko'rsatilgan holda).
 2. Shartnoma shartlariga o'zgartirish kiritish (restrukturizatsiya qilish) sabablarini tasdiqlovchi hujjatlar.
 3. Ta'minotning holati bo'yicha ma'lumot;
 4. Ta'minot bo'yicha mazkur amaliyotning amalga oshirilishi yuzasidan garovga qo'yuvchi, kafil va boshqalarning vakolatli organining belgilangan tartibdagi roziliklarini ifodalovchi hujjatlar.
- Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti/Kreditlar monitoringi bo'limi zarur hollarda loyiha bo'yicha boshqa hujjatlarni talab qilishga haqli.

**Yuridik shaxslarga ajratilgan kreditlarning shartnoma shartlariga o'zgartirish kiritish
bo'yicha Qarzdor tomonidan taqdim qilinadigan hujjatlar ro'yxati**

1. Qarzdorning kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi arizasi (asosli sabablar ko'rsatilgan holda).
 2. Kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish kiritish to'g'risidagi ta'sischilar qarori (bunda, korxona tomonidan bir martalik bank xizmati to'lashga rozilik ham bildirilgan bo'lishi lozim);
 3. To'lov grafiklariga o'zgartirish kiritilishi nazarda tutilgan kredit bo'yicha loyihaning texnik-iqtisodiy asoslari (biznes-rejasi), unda kreditning to'lov grafigiga o'zgartirish kiritilishiga olib kelgan sabablarni bartaraf etish va taqdim etilgan TIA ni o'z vaqtida bajarilishini ta'minlovchi chora-tadbirlar, shuningdek kelgusidagi pul oqimlari manbasi hamda rejalashtirilayotgan yangi to'lov grafigi aks ettirilishi zarur. (kredit ajratilishida biznes-reja talab qilinmaydigan kreditlar bundan mustasno)
 4. Xom-ashyo va materiallar yetkazib berish to'g'risidagi shartnomalar;
 5. Ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish to'g'risidagi shartnomalar;
 6. Ta'minotning holati bo'yicha ma'lumot;
 7. Oxirgi hisobot sanasiga buxgalteriya balanslari (*Kafil korxonanining ham agar kafillik shartnomasi mavjud bo'lsa*).
 8. Mijozning boshqa banklardagi majburiyatlari bo'yicha ma'lumotnoma;
 9. Korxonaning tashkiliy tuzilishi (MChJ, OK, XK va boshqalar)dan kelib chiqib, ta'sischilarining masala bo'yicha bayonnomasi va ta'sischilarning pasport nusxalari.
 10. Zarur hollarda kredit shartnomasi shartlariga o'zgartirish kiritish bo'yicha mazkur amaliyotning amalga oshirilishi yuzasidan garovga qo'yuvchi, kafil va boshqalarning vakolatli organining belgilangan tartibdagi roziliklarini ifodalovchi hujjatlar.
 11. Korxonaning ustav nusxasi (kreditning to'lov grafigiga o'zgartirish kiritish sanasiga unga kiritilgan barcha o'zgartirish va qo'shimchalar bilan birga va/yoki ustavning yangi taxriri).
- Muammoli aktivlar bilan ishlash departamenti/Kreditlar monitoringi bo'limi zarur hollarda loyiha bo'yicha boshqa hujjatlarni talab qilishga haqli.

“InFinBank” AJ tomonidan moliyalashtirilgan kreditlar
va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha
shartnoma shartlarini qayta ko'rib chiqish" tartibining
2-Ilovasi

Tasniflash mezonlarini belgilash

Tasniflash			Toifa	Bitim shartlari
№	Hodisa	Tasdiqlovchi hujjatlar		
1	Nogironlik	Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining I, II, guruh nogironlikka ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat	III	Bankka birlamchi murojaat; Kreditning tasnifi o'zgartirilmaydi; kredit davrini uzaytirish bo'yicha maksimal muddat 6 oygacha;
2	O'lim	Qarz oluvchining o'limini tasdiqlovchi hujjat (o'lim guvohnomasi).	II	Bankka birlamchi murojaat; Birgalikda qarz oluvchi / qarindosh (merosxo'r) tomonidan Bankka murojaat; kreditning tasnifi o'zgartiriladi; Har bir ariza alohida ko'rib chiqiladi, kredit davrini uzaytirish muddati 6 oygacha Majburiyatlar merosxo'rlarga qabul qilingan meros qiymati doirasida o'tadi;
3	Bola parvarish ta'tili	Homiladorlik va tug'ruq ta'tilida bo'lgan ayol (qarz oluvchi) uchun tasdiqlovchi hujjatlar	I	Qarz oluvchi uchun Bankka murojaat qilishlar soni cheklanmagan; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; kredit davrini uzaytirish muddati 10 oygacha;
4	Ish joyini yo'qotishi	Qarz oluvchining bandlik organlarida ishsiz sifatida ro'yxatga olinganini va mehnat shartnomasining bekor qilinganini tasdiqlovchi hujjatlar	V	Bankka birlamchi murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Mehnatga layoqatsizlik muddati 2 oydan oshganda; kredit davrini uzaytirish muddati 3 oygacha;
5	Og'ir kasallik	Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining og'ir kasalligi (shifoxona ma'lumotnomasi, onkodispenser xulosasi) va vaqtincha mehnatga layoqatsizligini tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar	IV	Bankka birlamchi murojaat; Kreditning tasnifi yomonlashmaydi; Mehnatga layoqatsizlik muddati 2 oydan oshganda; kredit davrini uzaytirish muddati 3 oygacha;

Yuqoridagi holatlar bankka murojaat qilinishidan oldingi to'rt (4) oy davomida sodir bo'lgan bo'lishi lozim.

3-Ilovasi

**KREDIT SHARTLARINI QAYTA KO'RIB CHIQISH BO'YICHA
ARIZA**

“InFinBank” AJga

dan

(FISH)

JISHSHR	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14
---------	---	---	---	---	---	---	---	---	---	----	----	----	----	----

Telefon raqam

Yashash joyi

**Kreditni qaytarish muddatini kechiktirishni so'rash bo'yicha
Ariza**

Sizdan 20 ____ yil “ ____ ” ____ dagi ____ - sonli kredit shartnomasiga asosan
ajratilgan kredit to'lovlari bo'yicha quyidagi qiyinchiliklar yuzaga kelishi munosabati bilan ushbu kreditni
restrukturizatsiya qilib berishingizni so'rayman.

№	Hodisa	Tavsif	Belgi qo'yish
1	Nogironlik	Qarz oluvchi/Birgalikda qarz oluvchining I yoki II guruh nogironlikka ega ekanligini tasdiqlovchi hujjat	
2	O'lim	Qarz oluvchini o'limini tasdiqlovchi hujjat (o'lim guvohnomasi).	
3	Bola parvarish ta'tili	Homiladorlik va tug'ruq ta'tilida bo'lgan ayol (qarz oluvchi) uchun tasdiqlovchi hujjatlar	
4	Ish joyini yo'qotishi	Qarz oluvchining bandlik organlarida ishsiz sifatida ro'yxatga olinganini hamda mehnat shartnomasining bekor qilinganini tasdiqlovchi hujjatlar	
5	Og'ir kasallik	Qarz oluvchi/birgalikda qarz oluvchining og'ir kasalligi (shifoxona ma'lumotnomasi, onkodispenser xulosasi) va vaqtincha mehnatga layoqatsizligini tasdiqlovchi tibbiy hujjatlar	

Ilova qilingan hujjatlarning skaner nusxalari ro'yxati (sanab o'ting) _____

Ushbu arizani imzolash orqali men yangi to'lov jadvali va kechiktirish shartlariga to'liq roziman.

Garov obyekti bo'yicha shartlar va muddatni o'zgartirish (garov bilan ta'minlangan kreditlar uchun), shuningdek, kechiktirish muddati tugagandan so'ng, kreditni belgilangan miqdorda o'z vaqtida to'lash majburiyatini olaman.

(imzo)

(sana)

Restrukturizatsiya turlari va aniqlash usuli

Kreditlarni moliyaviy sog‘lomlashtirish bo‘yicha taklif etilayotgan vositalar turlar		
Kredit muddatini uzaytirish	Kredit ta‘tili	Kredit to‘lovini qolgan oylarga teng taqsimlash
Prolongatsiya 1. To‘lov 2. To‘lov 3. To‘lov 4. To‘lov 5. To‘lov 6. To‘lov 7. To‘lov 8. To‘lov 9. To‘lov 10. To‘lov 11. To‘lov 12. To‘lov 13. To‘lov 14. To‘lov 15. To‘lov 16. To‘lov 17. To‘lov 18. To‘lov 19. To‘lov 20. To‘lov 21. To‘lov	Ta‘til 1. To‘lov 2. To‘lov 3. To‘lov 4. To‘lov 5. To‘lov 6. To‘lov 7. To‘lov 8. To‘lov 9. To‘lov 10. To‘lov 11. To‘lov 12. To‘lov 13. To‘lov 14. To‘lov 15. To‘lov 16. To‘lov 17. To‘lov 18. To‘lov	Grafik 1. To‘lov 2. To‘lov 3. To‘lov 4. To‘lov 5. To‘lov 6. To‘lov 7. To‘lov 8. To‘lov 9. To‘lov 10. To‘lov 11. To‘lov 12. To‘lov 13. To‘lov 14. To‘lov 15. To‘lov 16. To‘lov 17. To‘lov 18. To‘lov
Prolongatsiya — qarz summasini o‘zgartirmasdan kreditning amal qilish muddatini uzaytirish	Kredit ta‘tili — asosiy qarz va/yoki foizlar bo‘yicha to‘lovni vaqtincha kechiktirish	To‘lov grafigini o‘zgartirish - Kredit to‘lovini qolgan oylarga teng taqsimlash

Ushbu jadval (na‘muna sifatida)dagi muddatlar hodisa turidan kelib chiqib o‘zgaradi

ANIQLASH USULLARI

Holatning tavsifi	Mijoz daromadi	Taklif etilayotgan restrukturizatsiya turlari
Uzoq muddatli	Mavjud emas / barqaror emas	Muddat uzaytirish
Vaqtinchalik	Vaqtinchalik mavjud emas	Kredit Ta‘tili
Sezilarli bo‘lmagan pasayish	O‘zgarishsiz qoladi	To‘lov jadvalini o‘zgartirish

YURIDIK XULOSA IO3-256¹

Yuridik departamenti tomonidan “InFinBank” AJ tomonidan moliyalashtirilgan kreditlar va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo’yicha shartnoma shartlarini qayta ko’rib chiqish tartibi” loyihasi huquqiy ekspertizadan o’tkazildi.

Mazkur loyiha:

- O’zbekiston Respublikasining 05.11.2019-yildagi “Banklar va bank faoliyati to’g’risida”gi O’RQ-580-sonli Qonuni;

- O’zbekiston Respublikasining 01.05.1998-yildagi “Garov to’g’risida”gi O’RQ-614-I-sonli Qonuni;

- O’zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi;

- O’zbekiston Respublikasining 20.04.2022-yildagi “Nobank kredit tashkilotlari faoliyati va mikromoliyalashtirish faoliyati to’g’risida”gi O’RQ-765-sonli Qonuni;

“Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo’yicha ehtimoliy yo’qotishlarni qoplash uchun zaxiralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to’g’risida”gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 14.07.2015-yilda ro’yxatdan o’tkazilgan, ro’yxat raqami: 2696);

- “Bank xizmatlari iste’molchilari bilan o’zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo’yiladigan minimal talablar to’g’risida”gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 02.07.2018-yilda ro’yxatdan o’tkazilgan, ro’yxat raqami: 3030);

- “InFinBank” AJning ichki qoidalar va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Shuningdek, ushbu loyiha “Markaziy bank tomonidan tijorat banklarining ichki qoidalariga qo’yiladigan talablar to’g’risida”gi Nizom (Adliya vazirligi tomonidan 05.04.2000-yilda ro’yxatdan o’tkazilgan, ro’yxat raqami: 916) talablariga javob beradi.

**Yuridik departament
direktori v.v.b.**

Metodologiya bo’limi
boshlig’i

2026-yil 30-yanvar



J.M. Atamirzayev

H.B. Abdisattorov